

III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI



2023- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) umumiyligi hajm 41 001,6 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,0 %, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 38 502,5 mlrd. so'mni (103,8 %), o'rmonchilik xo'jaliklari 1 490,2 mlrd. so'mni (102,9 %), baliqchilik xo'jaliklarida 706,8 mlrd. so'mni (135,4 %) tashkil qildi.

Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Yangiyo'l shahar (111,8 %), Yangiyo'l (127,5 %) va Bekobod (104,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Bo'ka tumani (100,6 %), Nurafshon (100,3 %) va Angren (100,8) shaharlarida past o'sish sur'atlari bilan yakunlandi.


**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan
(ko'rsatilgan xizmatlar) hajmda hududlarning ulushi**

| | <i>2023- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'm *</i> | <i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</i> | <i>Umumiy hajmda hududlarning ulushi, %da</i> |
|--------------------------|--|---|---|
| Toshkent viloyati | 40 699,5 | 104,1 | 100,0 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Nurafshon | 63,4 | 100,3 | 0,2 |
| Olmaliq | 93,3 | 101,2 | 0,2 |
| Angren | 428,9 | 100,8 | 1,1 |
| Bekobod | 448,9 | 102,4 | 1,1 |
| Ohangaron | 80,4 | 102,2 | 0,2 |
| Chirchiq | 151,2 | 101,5 | 0,4 |
| Yangiyo'1 | 62,9 | 111,8 | 0,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oqqo'rg'on | 2 971,2 | 101,8 | 7,5 |
| Ohangaron | 1 655,6 | 101,0 | 4,2 |
| Bekobod | 4 252,7 | 104,1 | 10,5 |
| Bo'stonliq | 3 483,3 | 103,4 | 8,4 |
| Bo'ka | 2 276,5 | 100,6 | 6,3 |
| Quyi Chirchiq | 2 261,7 | 103,9 | 6,1 |
| Zangiota | 2 743,3 | 103,7 | 6,6 |
| Yuqori Chirchiq | 2 359,4 | 103,4 | 5,9 |
| Qibray | 1 894,4 | 101,4 | 4,7 |
| Parkent | 3 073,0 | 100,6 | 6,6 |
| Piskent | 2 426,0 | 100,3 | 6,5 |
| O'rta Chirchiq | 2 308,4 | 102,7 | 5,9 |
| Chinoz | 2 256,4 | 103,4 | 5,7 |
| Yangiyo'1 | 3 295,9 | 127,5 | 6,2 |
| Toshkent | 2 112,7 | 103,4 | 4,9 |

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi

| | <i>2023- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'm</i> | <i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</i> | <i>Umumiy hajmda kichik biznes ulushi, %da</i> |
|--------------------------|--|---|--|
| Toshkent viloyati | 37 830,6 | 103,6 | 88,5 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Nurafshon | 61,7 | 100,3 | 100,0 |
| Olmaliq | 90,4 | 101,2 | 99,9 |
| Angren | 357,4 | 101,1 | 97,1 |
| Bekobod | 446,5 | 102,5 | 100,0 |
| Ohangaron | 77,6 | 102,2 | 99,3 |
| Chirchiq | 147,9 | 101,5 | 100,0 |
| Yangiyo'l | 60,4 | 110,8 | 99,7 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oqqo'rg'on | 2 836,5 | 101,5 | 92,3 |
| Ohangaron | 1 584,4 | 100,9 | 94,9 |
| Bekobod | 4 049,6 | 103,6 | 75,7 |
| Bo'stonliq | 3 363,8 | 103,5 | 96,9 |
| Bo'ka | 2 055,2 | 100,0 | 96,4 |
| Quyi Chirchiq | 1 894,7 | 102,8 | 63,1 |
| Zangiota | 2 634,9 | 103,6 | 94,9 |
| Yuqori Chirchiq | 2 249,2 | 103,6 | 97,9 |
| Qibray | 1 813,5 | 101,1 | 91,2 |
| Parkent | 2 981,7 | 100,5 | 99,9 |
| Piskent | 2 114,1 | 99,7 | 84,5 |
| O'rta Chirchiq | 2 075,8 | 102,3 | 84,9 |
| Chinoz | 2 120,5 | 104,5 | 95,4 |
| Yangiyo'l | 2 727,9 | 124,9 | 86,2 |
| Toshkent | 2 086,9 | 103,4 | 98,0 |


**2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) hajm,
mlrd. so'mda**



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning eng katta hajmi Bekobod tumanida – 4 252,7 mlrd. so'm, Bo'stonliq tumanida – 3 483,3 mlrd. so'm, Yangiyo'l tumanida – 3 295,9 mlrd. so'm kuzatildi.


Eng kam hajmi Yangiyo'l (62,9 mlrd. so'm), Nurafshon (47,5 mlrd. so'm) va Ohangaron (59,0 mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlar (xizmatlar)
umumiylajmida hududlarning ulushi**



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning umumiylajmida Bekobod tumanining ulushi 10,8 %ni tashkil etib, hududlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichni tashkil qildi. Bo‘stonliq (8,1 %), Parkent (7,8 %) va Oqqo‘rg‘on (6,9 %) tumanlari keyingi o‘rnlarni egalladi. Eng kam ulush Nurafshon, Olmaliq, Ohangaron va Yangiyo‘l shaharlarida (0,2 %dan) qayd etildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining
xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2023- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining o‘sishi 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,9 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari hamda chorvachilik mahsulotlari ham mos ravishda 104,5 %ni tashkil qildi.

Dehqonchilik. 2023- yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1 154,7 ming tonna sabzavot (2022- yilning shu davriga nisbatan 104,8 %) yig‘ib olindi.

Bundan tashqari, barcha toifadagi xo‘jaliklarda 386,1 ming tonna kartoshka qazib olindi, 136,0 ming tonna meva va rezavorlar yetishtirildi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida
asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**Sabzavot
(ming tonna)**

| | |
|-----------------|-------|
| Bekobod | 259,0 |
| Toshkent | 129,4 |
| Zangiota | 110,1 |
| Oqqo'rg'on | 91,8 |
| Chinoz | 89,1 |
| Bo'stonliq | 83,9 |
| Yangiyo'l | 79,7 |
| Qibray | 55,1 |
| Yuqori Chirchiq | 53,2 |
| Piskent | 46,7 |
| Parkent | 46,5 |
| Bo'ka | 26,1 |
| Ohangaron | 25,8 |
| Quyi Chirchiq | 21,2 |
| O'rta Chirchiq | 19,6 |
| Angren sh | 4,2 |
| Bekobod sh | 3,5 |
| Ohangaron sh | 2,9 |
| Chirchiq sh | 2,9 |
| Yangiyo'l sh | 1,8 |
| Olmaliq sh | 1,5 |
| Nurafshon sh | 0,6 |



**Kartoshka
(ming tonna)**

| | |
|-----------------|------|
| Bo'stonliq | 63,3 |
| Bekobod | 37,1 |
| Oqqo'rg'on | 36,8 |
| Yangiyo'l | 32,2 |
| Chinoz | 28,8 |
| Toshkent | 28,1 |
| Piskent | 27,8 |
| Zangiota | 25,9 |
| Quyi Chirchiq | 23,8 |
| O'rta Chirchiq | 17,4 |
| Yuqori Chirchiq | 15,5 |
| Parkent | 12,6 |
| Bo'ka | 11,3 |
| Qibray | 9,9 |
| Ohangaron | 7,0 |
| Bekobod sh | 3,0 |
| Chirchiq sh | 2,2 |
| Yangiyo'l sh | 1,0 |
| Angren sh | 0,8 |
| Ohangaron sh | 0,8 |
| Nurafshon sh | 0,4 |
| Olmaliq sh | 0,4 |




Yetishtirilgan sabzavot ekinlarining yuqori ko'rsatkichlari Bekobod (259,0 ming tonna), Toshkent (129,4 ming tonna) va Zangiota (110,1 ming tonna) tumanlarida tashkil etgan bo'lib, past ko'rsatkichlar Nurafshon (0,6 ming tonna) va Olmaliq (1,5 ming tonna) shaharlariga to'g'ri keldi. Kartoshka qazib olish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlari Bo'stonliq (63,3 ming tonna), Bekobod (37,1 ming tonna) va Oqqo'rg'on (36,8 ming tonna) tumanlarida tashkil etilgan bo'lib, past ko'rsatkichlar Olmaliq (0,4 ming tonna) va Nurafshon (0,4 ming tonna) shaharlariga to'g'ri keldi.

Chorvachilik. 2024- yilning 1- yanvar holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 102,0 %ga (jami 997 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 101,6 %ga (424 ming bosh), qo‘y va echkilar 100,3 %ga (1 089 ming bosh), otlar 100,4%ga (56 ming bosh), parrandalar 106,2 %ga (16 mln. boshga) ko‘paydi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 81,5 %ni, sut ishlab chiqarishda 97,1 %ni, tuxum ishlab chiqarishda 62,0 %ni tashkil etdi.

**2024- yil 1- yanvar holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**



Eng ko‘p qo‘y va echkilalar Ohangaron (256 ming bosh), Bo‘stonliq (191 ming bosh) va Parkent (104 ming bosh) tumanlarida bo‘lsa, aksincha past ko‘rsatkichlar Yangiyo‘l (1 ming bosh), Nurafshon (3 ming bosh) va Ohangaron (4 ming bosh) shaharlariga to‘g‘ri keldi.


Parrandalar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Bo‘stonliq (2 674 ming bosh), Zangiota (2 079 ming bosh) va Qibray (1 731 ming bosh) tumanlarida bo‘lsa, aksincha past ko‘rsatkich Yangiyo‘l (10 ming bosh), Nurafshon (11 ming bosh) va Olmaliq (12,9 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.

2024- yil 1- yanvar holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

| | <i>Ming bosh</i> | <i>O’sish sur’ati, %da</i> |
|--|------------------|--------------------------------|
| Yirik shoxli qoramol | 997 | 102,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| fermer xo‘jaliklari | 89 | 100,8 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 851 | 101,8 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 56 | 106,9 |
| Ulardan sigirlar | 424 | 101,6 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| fermer xo‘jaliklari | 27 | 93,2 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 379 | 102,0 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 17 | 109,3 |
| Qo‘y va echkilalar | 1 089 | 100,3 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| fermer xo‘jaliklari | 329 | 98,3 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 684 | 102,6 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 75 | 90,0 |
| Otlar | 56 | 100,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| fermer xo‘jaliklari | 11 | 100,0 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 41 | 100,9 |

| | <i>Ming bosh</i> | <i>O'sish sur'ati, %da</i> |
|--|------------------|--------------------------------|
| qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 3 | 95,9 |
| Parrandalar | 16 750 | 106,2 |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo'jaliklari | 323 | 104,1 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 9 261 | 100,2 |
| qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 7 164 | 115,2 |


Chorva mollari va parrandalar bosh sonida xo'jaliklar toifalarining ulushi




Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 85,4%ni, fermer xo‘jaliklarida esa 9,0 %ni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 89,4%ni va 6,5 %ni, qo‘y va echkilar 62,8 %ni va 30,3 %ni, otlar 73,9 %ni va 19,8 %ni, parrandalar 55,3 %ni va 1,9 %ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 305,9 ming tonna go‘sht (2022- yilning mos davriga nisbatan 7,5 %ga ko‘p), 1 022,8 ming tonna sut (5,4 %ga ko‘p), 1 509,7 mln. dona tuxum (4,8 %ga ko‘p) ishlab chiqarilgan.

**Yirik shoxli qoramollar
(ming bosh)**



**shu jumladan: sigirlar
(ming bosh)**



Yirik shoxli qoramollar hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Bo'stonliq (115 ming bosh), Bekobod (89 ming bosh) va Ohangaron (81 ming bosh) tumanlarida, aksincha past ko'rsatkich Chirchiq (2 ming bosh), Yangiyo'l (2 ming bosh) va Ohangaron (3 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.


Shu jumladan, sigirlar eng yuqori ko'rsatkich Bo'ka (39 ming bosh), Bo'stonliq (37 ming bosh) va Bekobod (36 ming bosh) tumanlariga, aksincha past ko'rsatkich Chirchiq (1 ming bosh), Yangiyo'l (1 ming bosh) va Ohangaron (1 ming bosh) shaharlariga to'g'ri keldi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan
chorvachilik mahsulotlari**

| | <i>miqdori</i> | <i>o'sish sur'ati, %da</i> |
|---|----------------|--------------------------------|
| Go'sht (tirik vaznda), ming t. | 305,9 | 107,5 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| fermer xo'jaliklari | 7,9 | 76,8 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 219,1 | 100,9 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 78,9 | 137,8 |
| Sut, mingt. | 1 022,8 | 105,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| fermer xo'jaliklari | 55,2 | 120,3 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 929,9 | 104,7 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 37,7 | 102,2 |
| Tuxum, mln. dona | 1 509,7 | 104,8 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| fermer xo'jaliklari | 3,1 | 89,8 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 987,6 | 101,4 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 519,1 | 112,3 |


**Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi
(ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan % hisobida)**

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yil yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish xo'jaliklar kesimida tahlil qilinganda, go'sht ishlab chiqarish 2,6 %, sut ishlab chiqarish 5,3 % ulushi fermer xo'jaliklari, tuxum ishlab chiqarish 34,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hisobiga to'g'ri keladi.


**2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i
chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**



2023- yil yanvar-dekabr oylarida go'sht ishlab chiqarish hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p ishlab chiqargan hududlar Yangiyo'l (42,1 ming tonna), Bo'stonliq (29,3 ming tonna) va Zangiota (23,7 ming tonna) tumanlari bo'lsa, Yangiyo'l (0,4 ming tonna), Olmaliq (0,6 ming tonna) va Ohangaron (0,6 ming tonna) shaharlari esa kam ishlab chiqarilgan.

Bo'stonliq (115,4 ming tonna), Yuqori Chirchiq (99,7 ming tonna) va Bekobod (88,6 ming tonna) tumanlari sut ishlab chiqarish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlardan o'rin olgan bo'lsa, aksincha Yangiyo'l (1,9 ming tonna), Nurafshon (3,3 ming tonna) va Ohangaron (3,4 ming tonna) shaharlari sut ishlab chiqarish bo'yicha past ko'rsatkichlardan o'rin egalladi.

Tuxum (mln. dona)



Viloyatda tuxum ishlab chiqarish bo'yicha 2023- yil yanvar-dekabr oylarida eng yuqori ko'rsatkich Zangiota (231,4 mln. dona), Qibray (219,0 mln.dona) va Bo'stonliq (193,3 mln. dona) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, past ko'rsatkich Yangiyo'l (0,6 mln. dona), Nurafshon (0,7 mln. dona) va Olmaliq (1,0 mln. dona) shaharlarida kuzatildi.

Fermer xo'jaliklari. 2023- yil yanvar-dekabr oylarida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 5 877,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiyligi hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 15,5 %ni tashkil etdi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan
ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

| | <i>yanvar-dekabr</i> | | | | <i>2022- yanvar- dekabrga nisbatan % hisobida</i> | |
|-------------------------|----------------------|---|------------------|---|---|--|
| | <i>2022- yil</i> | | <i>2023- yil</i> | | | |
| | <i>tonna</i> | <i>Ishlab chiqarish umumiyl hajmidagi ulushi, %</i> | <i>tonna</i> | <i>Ishlab chiqarish umumiyl hajmidagi ulushi, %</i> | | |
| Kartoshka | 37 261 | 10,0 | 39 454 | 10,2 | 105,9 | |
| Sabzavot | 135 638 | 12,3 | 130 811 | 11,3 | 96,4 | |
| Go‘sht, tirik vaznda | 10 287 | 3,6 | 7 902 | 2,6 | 76,8 | |
| Sut | 45 923 | 4,7 | 55 258 | 5,4 | 120,3 | |
| Tuxum, mln. dona | 3 399 | 0,2 | 3 052 | 0,2 | 89,8 | |

2024- yilning 1- yanvar holatiga fermer xo‘jaliklarida 89,3 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 26,7 ming bosh sigir, 329,7 ming bosh qo‘y va echkilar, 11 214 bosh ot, 323,8 ming bosh parrandalar mavjud.